

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida
UDK: 336.9:338.6:004(077)631.9(575.1)


MAMASOATOV DILSHOD RAVSHANOVICH

**TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI EKSPORTINI
RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI
PLATFORMALARDAN FOYDALANISHNI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philodophy)
ilmiy darajasini olish olish uchun tayyorlangan
DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar: Kenjabaev Aman Turgunovich
iqtisod fanlari doktori, professor**



1276

Toshkent – 2023 y

MUNDARIJA

KIRISH.....		3
I BOB. TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI EKSPORTINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI PLATFORMALARDAN FOYDALANISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI		
1.1-§	Tadbirkorlik subyektlari eksportini rivojlantirishda raqamli platformalardan foydalinishning mazmun mohiyati.....	13
1.2-§	Tadbirkorlik faoliyati eksportini rivojlantirishda raqamli platformalardan foydalinishning hozirgi holati va o'ziga xos xususiyatlari.....	24
1.3-§	Tadbirkorlik subyektlari eksportini rivojlantirishda raqamli platformalardan foydalinishning xorijiy tajribalari va ulardan foydalanish yo'llari..... Birinchi bob bo'yicha xulosa	39 62
II BOB. TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI EKSPORTINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI PLATFORMALARDAN FOYDALANISH AMALIYOTI		
2.1-§	Tadbirkorlik subyektlari eksportini rivojlantirishda raqamli platformalardan foydalinishdagi muammolar.....	63
2.2-§	Tadbirkorlik subyektlari eksportidagi masofaviy interaktiv xizmatlarni qo'llashning amaliy jihatlari.....	74
2.3-§	Tadbirkorlik subyektlari eksportida raqamli platformalardan foydalanish uchun konsalting xizmatini joriy qilish asoslari..... Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....	89 106
III BOB. TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI EKSPORTINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI PLATFORMALARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI		
3.1-§	Tadbirkorlik subyektlari eksportida raqamli platformalardan foydalanish strategiyalari.....	108
3.2-§	Tadbirkorlik subyektlari tomonidan qishloq xo'jaligi mahsulotlarlarini sotish bo'yicha elektron savdo maydonchasidan foydalanishni takomillashtirish.....	120
3.3-§	Tadbirkorlik subyektlari eksportini rivojlantirish samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash istiqbollari..... Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....	128 143
XULOSA.....		
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....		
ILOVALAR.....		

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Jahon iqtisodiyotida raqamli texnologiyalar har jihatdan tubdan o‘zgarishiga olib kelmoqda. Bu texnologiyalar orqali tadbirkorlik subyektlari eksportiga alohida e’tibor berish va eksport jarayonida raqamli platformalardan foydalanishda elektron to‘lovlarni amalga oshirish jarayoni ham jadal ravishda rivojlanib bormoqda. Bugungi kunga kelib, “jahonda raqamli iqtisodiyotning o‘sish sur’atlari yildan-yilga oshib borib, taraqqiy etgan davlatlarda uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 7 foizga qadar yetdi. Axborot-texnologiyalarining yalpi ichki mahsulotdagi (YaIM) ulushi AQShda – 10,9 foiz, Xitoyda – 10,0 foiz, Hindistonda – 5,5 foizni tashkil etmoqda”¹. Jahon miqyosida tadbirkorlik subyektlari eksporti mamlakatlarning YaIMda muhim o‘rin tutganligi bois, bu sohani yanada jadal rivojlantirish va eksportdagi raqobatbardoshlikni kengaytirish maqsadida raqamli iqtisodiyot texnologiyalaridan samarali foydalanish va amaliyotga joriy etish dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda.

Jahonda raqamli iqtisodiyotning tobora rivojlanishi va keng miqyosda tadbirkorlik subyektlari eksport jarayonida raqamli platforma-lardan foydalanish XXI asrning global tendensiyasiga aylangan bo‘lib, tadbirkorlik subyektlari eksportining raqamli platformalar orqali amalga oshirishni rivojlantirishda ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Eksport jarayonini raqamlashtirish hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportida raqamli platformalarning keng ko‘lamli tarmog‘ini rivojlantirishda ulkan ma’lumotlar bazasini yaratish «Big Data» (ulkan ma’lumotlar) va foydalanuvchilar Internet-platformada axborot texnologiyalari resurslarda ma’lumot kiritish yoki olish uchun «Cloud Computing» (bulut texnologiyasi) ishlata dilar. Shuningdek, raqamli ekotizim bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish yuzasidan ilmiy-tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

¹ <https://review.uz/post/uzbekistan-otsifroviyaetsya>.